

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA PAREMIYA BIRIKMALARI

U. Mamatjonova.

SamDCHTI akademik litsey fransuz tili o'qituvchisi

Paremiya birliklari tilning mazmunli, ta'sirchan bo'lishini taminlovchi birliklari bo'lib, ular har qanday tilning uslubiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi boy manba hisoblanadi. Ularga maqollar, matallar, aforizmlar kiradi. Paremiya birikmalari tilning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganilishi zarur bo'lgan birligi hisoblanadi. Maqol va matallar-xalq og'zaki ijodining qadimgi janri. Ular kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va o'z ildizlari bilan o'tmish asrlarga borib taqaladi. Ularning ayrimlari hali yozuv paydo bo'lmagan davlarda yaratilgan. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli majmuasidir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo'lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Har bir maqolning vujudga kelishi biror bir ibratli voqea ta'sirida hosil bo'ladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit –turk" asarida shunday maqol mavjud "Besh qo'l barobar emas", "Xo'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq", "Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga meros bo'lib qoladi", ¹ Maqol arab tilidagi "qavlun" so'zidan olingan bo'lib, so'z tushunchasini anglatadi. Maqol atamasini hikmatli so'z ma'nosida qabul qilish mumkin. Xalq og'zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyo olimlari maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo'lgan munosabati aks etganligini alohida takidlaydilar. Haqiqatdan ham, agar o'zbek xalq maqollariga murojaat etsak, bu fikr nechog'lik to'g'ri ekanligiga ichonchimiz komil bo'ladi. "Tulki o'z uyasiga qarab xursa qutir bo'ladi" maqolida ajdodlarimizning o'z vataniga bo'lgan hurmati, vatanni talash emas, balki himoya qilish kerakligi haqida fikr aks etgan. Ma'lumki, maqollar shaklan ixcham, mazmunan keng, obrazli va yaxlit, barqaror ohangga ega bo'lganligidan nutqda, ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda alohida qimmat kasb etadi. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq obrazli qilib ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashda juda ham qo'l keladi. Zabardast tilshunos olim, akademik Sh.Shoabdurahmonov o'z vaqtida ta'kidlaganidek, «o'zbek tili maqollarga juda boy. Bu maqollar asrlar qanotida avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, sayqal topib, yana jilolanib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Shu qanotda yana asrlar osha kelajak avlodlarga ham uchib boradi va ularni xalq hikmatlarining muattar bo'yidan bahramand qiladi». Xalqimiz donishmandligining bu turini to'plash va tadqiq etish borasida katta xizmat qilgan olimlar - Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar mana bunday deb yozadilar: «Dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran mazmunni, so'z xazinasining dur-u javohirlarini o'zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (ya'ni ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir». Shuning uchun ham so'z san'atkorlari o'z

¹ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi. – T., 2019., -2107 b.

asarlarida xalq donishmandligining o'ziga xos mahsullari bo'lmish bunday birliklarga qayta-qayta murojaat qiladilar, bu borada o'zlarining mahoratlarini namoyish etadilar. Har qanday badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarning o'rni beqiyosdir. Chunki «maqolda voqelikning o'zi emas, balki voqelik haqida xalqning hukmi, xulosasi aks etadi».

O'zbek mumtoz adabiyotida maqoldan foydalanishning go'zal namunalarini ko'rish mumkin. Taniqli navoiyshunos olim, akademik A.Rustamov yozganidek, «badiiy nutqda maqoldan foydalanish ham san'at hisoblanib, unga «irsolu-l-masal» yoki «irsol-i masal» deyiladi».

Fransuz maqollari boshqa xalqlarning maqollari singari qator yillar davomida og'izdan-og'izga o'tib sayqallanib keldi. Ularda fransuz xalqining ma'naviyati, o'tmish tarixi, intilish va qiziqishlari, kundalik turmushdagi hodisa va voqealarga munosabatlar aks etgan. Biroq Fransiya xalqining maqollarining aynan o'ziga xos ayrim xususiyatlari borki, bu narsa mazkur maqollarni boshqa xalq maqollari mazmun va mohiyatidan keskin farqlanadi. Maqol va matallar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini ixcham va tugal tarzda ifodalar ekan, ularda so'zlarning turlicha ma'nolarda ishlatilishini kuramiz. Fransuz maqol va matallari o'zida ma'lum bir hikmatni tashir ekan bu iborali so'zlar ham she'riy tarzda ham nasriy yo'lda yaratilganligiga, maqollarning ifodali, badiiy chiqishi uchun ko'plab poetik vosita va san'atlardan foydalanilganligiga amin bo'lamiz. Fransuz xalq maqollarini o'rganish davomida, ularning boshqa boshqa xalq maqollaridan bir necha jihatlar bilan o'ziga xos tarzda farqlanishini ko'ramiz. Binchidan fransuz maqollarining ko'pchiligi tuzilishi jihatidan o'zbek maqollari singari she'riy tarzda emas, balki, nasriy yo'lda yaratilgan.

Il n'y a que les montagnes qui ne se rencontrent jamais—Tog' tog' bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashar

Il n'y a pas de fumée sans feu —Tutunsiz olov bo'lmas

Ikkinchidan, fransuz maqollarining ayrimlarida o'zbek maqollari uchun shartli hisoblangan xulosa, hukm aks etmasligi ham mumkin. Bunday iboralar janr hisoblansa, ularning nomi matal bo'ladi. Chunki o'zbek xalq maqollarida malum bir voqea hodisa haqida qat'iy hukm xulosa chiqariladi. Bundan anglashiladiki, fransuz xalq maqollari uchun hukmning bo'lishi shart emas. Hukmsiz aks etgan biroq hikmat, ibrat ma'nolarini tashuvchi kichik so'z birikmalari ham fransuz xalq maqollari sirasiga kiradi. Fransuz xalq maqollari tabiiyki qadimgi va zamondoshlarimiz bo'lgan fransuz xalqi yashagan yoki yashayotgan muhit, ijtimoiy hayotlarida sodir bo'lgan yoki bo'layotgan voqea hodisalarni va xalqning ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi. Qaysidir ma'noda o'zlari mansub bo'lgan xalqning tafakkur darajasini bildirishlari bilan birga xalqning mentalitetini ham o'zlarida namoyon etishadi. Bu ta'limot mohiyatida g'am nadomat singari pessimistik tushunchalar yotadi. Aynan shu holat fransuz san'atining yetakchi turlari roman yoki badiiy filmlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Fransuz xalq maqollari xalqning kechmishlari turmush tarzidan kelib chiqqan holda paydo bo'lgan bo'lib, unda turli hayvonlar, mehnat qurollari tasvirlarini ko'plab uchratish mumkin.

les chiens aboient, la caravane passe —It hurar, karvono‘tar

Qui a langue, va à Rome —Til bilgan Rimga boradi.

L'eau va toujours à danser la rivière (suv doim daryoga oqadi)- Pul pulni paydo qiladi.

Un âne chargé d'or ne laisse pas de braire (oltin bilan to'ldirilgan eshak hangrashdan to'xtamayapti)-

Fransuz maqollari bilan solishtirganda o'zbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang barangligi ma'lum bo'ladi. O'zbek tilidagi maqollar yaratilishi jihatidan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimizning ijodini tashkil etadi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit-turk" asarida kitobni "hikmatlar so'zlar,saj'lar, maqollar, rasaj va nasr deb atalgan adabiy parchalar" bilan bezaganligini aytadi.

Xalq maqollari epik va lirik janrlardan nafaqat o'zining kichik hajmi bilan balki,ularda jamoaviylik xususiyati ham yoqqol namoyon bo'ladi. Ko'pchilik odamlar oddiy kundalik hayotda turli masalalarga oid maqollarni bemalol qo'llashadilar, biroq doston, ertak va qo'shiq janrlaridan shu jihatda foydalabib bo'lmaydi. Fransuz va o'zbek tilidagi maqollarni solishtirganimizda ularning birida bor bo'lgan maqolni boshqasida ham uchratishimiz mumkin shuningdek qisman to'g'ri keladiganlarini ham shuningdek umuman mos keladigan birida bo'lgan maqolning ekvivalenti boshqasida uchramasliga ham mumkin. Umuman, xalq og'zaki ijodi namunalaridan sanalmish maqol va matallar keng auditoriyaning ham axloqiy, ham tarbiyaviy-estetik jihatdan ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi. – T., 2019.
2. Dictionnaire de l'argot. J.-P. Mével, Larousse, 1992.
3. Dictionnaire des expressions et locutions. A. Rea, S. Chantreau. P., 1984.
4. Бабкин А.М. Фразеология и лексикография // Проблемы фразеологии. М.;
5. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: Изд-воиностр. Лит., 1955.
6. Богин Г. И. Модель языковой личности в её отношении к разновидностям текстов. Л., 1984.
7. Bazarova, S. S. (2022). Li Xe Jo asarlarida gender tenglik munosabatining ilgari surilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 180-188.
8. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.
9. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 677-681
10. Эшимова, Ш. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. *Иностранная филология: язык, литература, образование*. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.